MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI 9
Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ 14
Маннапова Раъно Аброровна
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELI 22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS 29
Liu Qing
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI 36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA 41
Yorqin Xudoyiberdiev
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI 45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 53
Xojiyev Ma’murjon Muxsinjon o‘g‘li
HUDUDIY SPORT-SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 62
Misirxonov Habibxon Iskandar o‘g‘li
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH 71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO‘YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH 78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH 83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI RAG‘BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH 88
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ORQALI TA’MINLASH 93
Jo‘raxonov Muzaffar Eskandarovich
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI 101
Temirov E.I.
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI TA’SIRINI BAHOLASH 109
Mutorov Ilhom Avazjon o‘g‘li
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунавар
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ 127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ 138
Ташмухамедова Карима Саматовна
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI 150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI 156
Safaraliyev Basir Norboyevich
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH 162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB OLISH 169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH 174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ 179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI 183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH 189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI 195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI 200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE 204
Dilbar Ramazonova
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI 223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI 246
Sadikova Dildora Abdulla qizi
TOMORQA XO‘JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI 252
U.U. Nurullayev
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS 257
Abdulazizova Shakhrizoda Azizbek kizi
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA’SIRI TAHLILI 266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ 271
Т.С. Камалов, Х.Т. Ташева, Д.А. Ишанова, У.И. Абляев
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA’SIRI 279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) 284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 291
Turopova Nigora Xolmurod qizi
VIRTUAL REALLIK SAHNALARIDA KO‘P ISHTIROKCHILI HOLISTIK HARAKATNI REAL VAQT REJIMIDA KUZATISH VA KO‘P AGENTLI SKELETNI RETARGETING QILISH 297
Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o‘g‘li
O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI 304
Karimova Nurjahon Olim qizi
MAHALLIY AMALIYOTDA MOLIYAVIY..... HISOBOTNI SOXTALASHTIRISHNING ENG KENG TARQALGAN SHAKLLARINI TAHLIL QILISH 311
Xusanov Shuxrat Burxanovich
TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O‘TKAZMALARI BILAN BOG‘LIQ MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH YO‘LLARI 318
Eshmamatov Davlat Nuriddinovich
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY TAHLILI 325
Buriyev Sherzod Ahadovich

TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA INVESTITSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OMILLARI VA MEXANIZMLARI 329
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDA KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 336
Rasulov Baxtiyor Bahodirovich
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHLARI 342
Abduraxmonov Shohruh, Xalmatjanov Farhod
DEVELOPMENT OF AN INTEGRATED ESG-BASED FRAMEWORK FOR ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 347
Hatidje Nasirova
FROM CITY ASSETS TO PRODUCTIVE JOBS: AN EVENT-HISTORY FRAMEWORK FOR DIAGNOSING URBAN GROWTH CONSTRAINTS IN HISTORICAL CITIES 353
Azizbek Zaxidov
AGROTURIZM, GEOTURIZM VA ASTROTURIZM OBYEKTLARIGA TALABALAR EKSPEDITSIYALARINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI 360
Xoshimov Shoxruh G‘ulomovich
PKN 30% KOMPLEKS KIMYOVIY QO‘SHIMCHADAN FOYDALANISHDA BETON TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH 367
B.Q. Mirzayev, Pulatova Shahzoda
BESHINCHI INDUSTRIAL INQILOB DAVRIDA TEXNOLOGIK YECHIMLARNING O‘ZARO UYG‘UNLIGI 374
Shukurov Jaxongir Sa’dulla o‘g‘li
FROM AI AVATARS TO ONE-CLICK CHECKOUT: ALGORITHMIC PERSUASION AND IMPULSIVE MARKETPLACE PURCHASING IN UZBEKISTAN 378
Rano Balkhiboeva Davron qizi
TURLI IQLIM SHAROITLARIDA BINOGA INTEGRATSIYALASHGAN SHAFFOF FOTOVOLTAIK TIZIMLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGI VA ULARNI O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI 389
Akromjon Boboyev, Odilbek Dexqonboyev
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING STRATEGIK RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 397
Nodira Abdulxamidova Abdurashitovna
O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDO VA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI AGROEKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH: QOVUN EKSPORTINING YEVROPA ITTIFOQI BOZORLARIGA CHIQISH IMKONIYATLARI 404
Raximov Feruz Uyg'unovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDO VA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI AGROEKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH: QOVUN EKSPORTINING YEVROPA ITTIFOQI BOZORLARIGA CHIQISH IMKONIYATLARI

Raximov Feruz Uyg'unovich
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Abstract. This article examines the opportunities for diversifying Uzbekistan's agro-export geography through the improvement of foreign trade and transport-logistics infrastructure, using melon exports as a case study. The current geographical structure of Uzbekistan's melon exports, its dependence on certain traditional markets, and the prospects for entering the European Union market, particularly Germany, are assessed. The study applies economic-statistical, comparative, and structural analysis methods, the Herfindahl–Hirschman Index (HHI), and a simple linear regression model. The calculations show that the concentration of melon exports remained relatively high in certain years during 2019–2025. According to the regression analysis, a positive and statistically significant relationship was identified between Germany's share in melon exports and the total export volume ($\beta = 2.2202$; $R^2 = 0.787$; $p = 0.0077$). The results indicate that a 1 percentage-point increase in Germany's market share is associated, on average, with a 2.2% increase in the total volume of melon exports. To diversify exports, the study proposes developing cold-chain logistics, expanding multimodal transport routes, implementing GLOBALG.A.P. and European Union standards, improving the electronic phytosanitary system, establishing distribution centers in Germany, and creating an AI-based "Smart Export" platform.

Keywords: foreign trade, logistics infrastructure, agro-export, export diversification, melon exports, European Union, German market, Herfindahl–Hirschman Index, regression analysis, cold-chain logistics, transport corridors.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda tashqi savdo va transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish orqali agroeksport geografiyasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari qovun eksporti misolida tadqiq etilgan. O'zbekiston qovun eksportining amaldagi geografik tarkibi, uning ayrim an'anaviy bozorlarga bog'liqligi hamda Yevropa Ittifoqi, xususan, Germaniya bozoriga kirish istiqbollari baholangan. Tadqiqotda iqtisodiy-statistik, qiyosiy va tarkibiy tahlil usullari, Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) hamda oddiy chiziqli regressiya modelidan foydalanilgan. Hisob-kitoblar 2019–2025-yillarda qovun eksporti konsentratsiyasining ayrim yillarda yuqori darajada saqlanib qolganini ko'rsatgan. Regressiya tahliliga ko'ra, Germaniya bozorining qovun eksportidagi ulushi bilan umumiy eksport hajmi o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ($\beta = 2,2202$; $R^2 = 0,787$; $p = 0,0077$). Natijalarga ko'ra, Germaniya bozoridagi ulushning 1 foiz punktga oshishi umumiy qovun eksporti hajmining o'rtacha 2,2 foizga ko'payishi bilan bog'liq. Tadqiqotda eksportni diversifikatsiya qilish uchun sovuq logistika zanjirlarini rivojlantirish, multimodal transport yo'nalishlarini kengaytirish, GLOBALG.A.P. va Yevropa Ittifoqi standartlarini joriy etish, elektron fitosanitariya tizimini takomillashtirish, Germaniyada distribyutorlik markazlarini tashkil etish hamda sun'iy intellekt asosidagi "Aqlli eksport" platformasini yaratish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, logistika infratuzilmasi, agroeksport, eksport diversifikatsiyasi, qovun eksporti, Yevropa Ittifoqi, Germaniya bozori, Herfindahl–Hirschman indeksi, regressiya tahlili, sovuq logistika, transport koridorlari.

Аннотация. В данной статье исследованы возможности диверсификации географии агроэкспорта Узбекистана за счёт совершенствования внешнеторговой и транспортно-логистической инфраструктуры на примере экспорта дынь. Оценены текущая географическая структура экспорта дынь из Узбекистана, его зависимость от отдельных традиционных рынков, а также перспективы выхода на рынок Европейского союза, в частности Германии. В исследовании использованы экономико-статистический, сравнительный и структурный методы анализа, индекс Херфиндаля–Хиршмана (HHI), а также модель простой линейной регрессии. Расчёты показали, что в 2019–2025 годах концентрация экспорта дынь в отдельные годы сохранялась на высоком уровне. Согласно результатам регрессионного анализа, между долей рынка Германии в экспорте дынь и общим объёмом экспорта выявлена положительная и статистически значимая взаимосвязь ($\beta = 2,2202$; $R^2 = 0,787$; $p = 0,0077$). Полученные результаты показывают, что увеличение доли рынка Германии на 1 процентный пункт связано в среднем с ростом общего объёма экспорта дынь на 2,2 %. В целях диверсификации экспорта предложено развивать холодовые

логистические цепочки, расширять мультимодальные транспортные маршруты, внедрять стандарты GLOBALG.A.P. и Европейского союза, совершенствовать электронную фитосанитарную систему, создавать дистрибьюторские центры в Германии, а также разработать платформу «Умный экспорт» на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: внешняя торговля, логистическая инфраструктура, агроэкспорт, диверсификация экспорта, экспорт дынь, Европейский союз, рынок Германии, индекс Херфиндаля–Хиршмана, регрессионный анализ, холодовая логистика, транспортные коридоры.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi geosiyosiy beqarorlik, global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar va transport xarajatlarining ortishi eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda logistika infratuzilmasini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston uchun xalqaro transport koridorlarini kengaytirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston agroeksporti, jumladan, qovun eksporti geografiyasida ayrim an’anaviy bozorlarga yuqori darajadagi bog‘liqlik saqlanib qolmoqda. Bu holat eksportning tashqi iqtisodiy va geosiyosiy xatarlarga sezgirligini oshiradi. Shu sababli Yevropa Ittifoqi, xususan, Germaniya kabi yuqori daromadli bozorlarga chiqish eksport barqarorligini ta’minlashning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Biroq ushbu bozorlarga kirish rivojlangan sovuq logistika tizimi, zamonaviy qadoqlash, xalqaro sertifikatlar hamda fitosanitariya talablariga muvofiqlikni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishning agroeksport diversifikatsiyasiga ta’sirini baholash hamda qovun eksportining Yevropa Ittifoqi, ayniqsa, Germaniya bozoriga chiqish imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotda eksport geografiyasining konsentratsiyasi Herfindahl–Hirschman indeksi yordamida, Germaniya bozoridagi ulush bilan umumiy qovun eksporti hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik esa regressiya modeli yordamida baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdo, logistika infratuzilmasi va eksportni diversifikatsiya qilish masalalari so‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiyotda eng ko‘p o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, geosiyosiy beqarorlik, global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar va transport xarajatlarining oshishi eksport geografiyasini kengaytirish hamda logistika tizimlari samaradorligini oshirishni davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Shu bois mazkur tadqiqot logistika infratuzilmasi, savdoni yengillashtirish (Trade Facilitation) va eksport diversifikatsiyasi bo‘yicha mavjud ilmiy yondashuvlarni tahlil qilishga asoslanadi.

Jahon banki (World Bank) tadqiqotlarida mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi transport infratuzilmasi sifati, bojxona tizimining samaradorligi, logistika xizmatlari, yuklarni kuzatish imkoniyati va yetkazib berishning ishonchliligi bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi. Xususan, **Logistics Performance Index (LPI)** metodologiyasida logistika samaradorligi oltita asosiy indikator — bojxona tartib-taomillari samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashuvlarni tashkil etish qulayligi, logistika xizmatlari sifati, yuklarni kuzatish imkoniyati hamda yetkazib berishning o‘z vaqtida amalga oshirilishi orqali baholanadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, logistika ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi tashqi savdo xarajatlarini kamaytirish, eksport hajmini oshirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) xalqaro qiymat zanjirlari (Global Value Chains — GVC) bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida zamonaviy xalqaro savdo endilikda alohida mahsulotlar emas, balki global ishlab chiqarish zanjirlari asosida shakllanayotganini qayd etadi. OECD ekspertlarining fikricha, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish uchun logistika infratuzilmasi, bojxona tartib-taomillari va transport koridorlarining rivojlanganligi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatlarda samarali transport koridorlarini shakllantirish iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) tomonidan ishlab chiqilgan **Trade Facilitation Agreement (TFA)** xalqaro savdoda bojxona va chegara tartib-taomillarini soddalashtirish orqali savdo xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. WTO tadqiqotlarida elektron bojxona tizimlari, “Yagona darcha” (Single Window), xavflarni boshqarish tizimlari va raqamli hujjat aylanishi eksport-import operatsiyalarini tezlashtirishi hamda kichik va o‘rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishini osonlashtirishi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bojxona islohotlari bilan hamohang hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) o‘z tadqiqotlarida eksportni geografik va mahsulot tarkibi bo‘yicha diversifikatsiya qilishni iqtisodiy barqarorlikning muhim

omillaridan biri sifatida baholaydi. UNCTAD ekspertlarining fikricha, eksportning cheklangan miqdordagi mahsulot yoki bozorlarga yuqori darajada bog‘liqligi tashqi iqtisodiy shoklar ta’sirini kuchaytiradi. Shu sababli rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi bozorlarga chiqish, yuqori daromadli segmentlarni egallash va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha tadqiqotlarida mintaqaning transport-kommunikatsiya salohiyatidan samarali foydalanish uchun multimodal logistika markazlarini rivojlantirish, xalqaro transport koridorlarini modernizatsiya qilish va chegaralarda tranzit vaqtini qisqartirish zarurligini qayd etadi. ADB tahlillariga ko‘ra, CAREC transport yo‘laklari va Transkaspiy xalqaro transport yo‘nalishi (Middle Corridor) Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekistonning Yevropa va Osiyo bozorlariga integratsiyalashuvini jadallashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Eksport diversifikatsiyasini miqdoriy baholash bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan usullardan biri **Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI)** hisoblanadi. Ushbu indeks dastlab bozor konsentratsiyasini baholash uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, keyinchalik eksport geografiyasi va mahsulot tarkibining diversifikatsiya darajasini aniqlashda ham keng qo‘llanila boshlandi. AQSh Adliya vazirligi va Federal Savdo Komissiyasi (DOJ/FTC) metodologiyasiga ko‘ra, HHI qiymati 0,15 dan past bo‘lsa diversifikatsiyalashgan, 0,15–0,25 oralig‘ida o‘rtacha, 0,25 dan yuqori bo‘lsa yuqori konsentratsiyalashgan bozor sifatida baholanadi. Mazkur tadqiqotda ham O‘zbekiston qovun eksportining geografik tarkibini baholash uchun ushbu metodologiyadan foydalanildi.

Eksport diversifikatsiyasining iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha Imbs va Wacziarg (2003) iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida mamlakatlarda diversifikatsiya kuchayishi, keyingi bosqichlarda esa nisbiy ixtisoslashuv ortishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Cadot, Carrère va Strauss-Kahn (2011) esa eksport diversifikatsiyasi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi eksport bozorlari va mahsulotlarini o‘zlashtirishning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Ushbu ilmiy xulosalar O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb bo‘lib, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti geografiyasini Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hisobiga kengaytirish zaruratini nazariy jihatdan asoslaydi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, logistika infratuzilmasi, savdoni yengillashtirish mexanizmlari va eksport diversifikatsiyasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlardir. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida ushbu yo‘nalishlar alohida o‘rganilgan bo‘lib, O‘zbekiston misolida transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi va agroeksportni, xususan, qovun eksportini Yevropa Ittifoqi bozorlariga diversifikatsiya qilish o‘rtasidagi bog‘liqlik kompleks empirik yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, logistika siyosati va eksport diversifikatsiyasini yagona iqtisodiy tizim sifatida baholaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda tashqi savdo va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishning agroeksportni diversifikatsiya qilishga ta’sirini kompleks baholashga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy va empirik yondashuvlar uyg‘unlashtirilib, eksport geografiyasining konsentratsiyalashuv darajasi hamda logistika infratuzilmasining eksport samaradorligiga ta’siri iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro savdo, eksport diversifikatsiyasi, logistika samaradorligi va global qiymat zanjirlari (Global Value Chains) bo‘yicha Jahon banki (World Bank), OECD, WTO, UNCTAD va Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Eksport geografiyasini baholashda Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), eksport ulushining umumiy eksport hajmiga ta’sirini aniqlashda esa oddiy chiziqli regressiya modeli qo‘llanildi. Tadqiqot davomida taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, grafik tahlil, indeks usuli hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, ayrim matn qismlarini tahrirlash va umumlashtirish jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi, bunda asosiy hisob-kitoblar, tahliliy natijalar, ilmiy xulosalar va mualliflik yondashuvi saqlab qolindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

HHI (Herfindahl–Hirschman Index) modeli

Eksport bozorlarining diversifikatsiyalashuv darajasini baholashda xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan **Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI)** dan foydalanildi. Mazkur indeks eksportning nechog‘li ayrim mamlakatlarga jamlanganligini aniqlash imkonini beradi.

HHI quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$HHI = \sum_{i=1}^{n} S_i^2$$

bu yerda:

S_i – *i*-mamlakatning umumiy eksportdagi ulushi;

n – eksport qilinayotgan mamlakatlar soni.

HHI qiymatlari quyidagicha talqin qilinadi:

HHI < 0,15 – eksport yuqori darajada diversifikatsiyalashgan;

0,15 ≤ HHI < 0,25 – o‘rtacha konsentratsiya;

HHI ≥ 0,25 – eksport yuqori darajada konsentratsiyalashgan.

Mazkur indeks O‘zbekistonning jami qishloq xo‘jaligi eksporti, poliz mahsulotlari eksporti hamda qovun eksporti bo‘yicha 2019–2025-yillar kesimida hisoblandi. Olingan natijalar eksport geografiyasining konsentratsiyalashuv darajasini baholash hamda yangi eksport bozorlariga chiqish zaruratini aniqlash imkonini berdi.

3.3. Regressiya modeli

Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida Germaniya bozoriga eksport ulushi bilan umumiy qovun eksporti hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik oddiy chiziqli regressiya modeli yordamida baholandi.Model quyidagi ko‘rinishda ifodalandi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X + \varepsilon$$

bu yerda:

Y – umumiy qovun eksporti hajmi (logarifmik ko‘rinishda);

X – Germaniya bozorining eksportdagi ulushi (%);

$\boldsymbol{\beta_0}$ – erkin had;

$\boldsymbol{\beta_1}$ – regressiya koeffitsienti;

ε – tasodifiy xatolik.

Model parametrlarini baholash uchun **eng kichik kvadratlar usuli (Eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Squares — OLS)** qo‘llanildi. Modelning statistik ishonchliligi **R^2**, **F-statistika**, **t-statistika** hamda **p-value** ko‘rsatkichlari orqali baholandi. Regressiya natijalari Germaniya bozoridagi ulushning ortishi umumiy qovun eksporti hajmiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini berdi.

3.4. Ma’lumotlar bazasi

Tadqiqotda 2019–2025-yillarni qamrab oluvchi rasmiy statistik va xalqaro ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi. Asosiy ma’lumot manbalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi;
- O‘zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi;
- Bojxona qo‘mitasining statistik ma’lumotlari;
- World Bank Open Data;
- UN Comtrade va WITS ma’lumotlar bazalari;
- FAOSTAT;
- WTO Trade Statistics;
- OECD Data;
- UNCTADstat;
- Jahon bankining **Logistics Performance Index (LPI)** ma’lumotlar bazasi.

Shuningdek, transport-logistika infratuzilmasi, xalqaro transport koridorlari, bojxona islohotlari va eksportni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlari hamda xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlaridan qo‘shimcha manba sifatida foydalanildi.

3.5. Foydalanilgan statistik usullar

Tadqiqot davomida quyidagi iqtisodiy-statistik usullar qo‘llanildi:

- tavsifiy statistik tahlil;
- dinamik qatorlar tahlili;
- tarkibiy (strukturaviy) tahlil;
- Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI);
- oddiy chiziqli regressiya (OLS);

- korrelyatsion tahlil;
- qiyosiy (comparative) tahlil;
- grafik va jadval tahlili.

Mazkur usullar eksport geografiyasining o‘zgarishini, logistika infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalarini hamda eksport diversifikatsiyasining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

3.6. Tadqiqot cheklovlari

Mazkur tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Birinchidan, regressiya tahlili 2019–2025-yillar bo‘yicha mavjud rasmiy statistik ma’lumotlar bilan chegaralangan bo‘lib, kuzatuvlar sonining nisbatan kamligi modelning prognoz imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ikkinchidan, tadqiqotda eksport hajmiga ta’sir etuvchi logistika xarajatlari, valyuta kursi, transport tariflari, iqlim sharoiti va xalqaro narxlar kabi barcha omillar regressiya modeliga kiritilmagan. Uchinchidan, logistika infratuzilmasi samaradorligi bevosita emas, balki eksport geografiyasi va tashqi savdo ko‘rsatkichlari orqali bilvosita baholangan.

Shunga qaramay, qo‘llanilgan metodologiya O‘zbekiston sharoitida transport-logistika infratuzilmasi, eksport geografiyasi va agroeksport diversifikatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli darajada ishonchli natijalar olish imkonini beradi.

4. O‘zbekiston tashqi savdo va logistika infratuzilmasining bugungi holati

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tashqi savdo va transport-logistika sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jahon iqtisodiyotida geosiyosiy ziddiyatlar, global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar va transport xarajatlarining ortishi sharoitida eksportni barqaror rivojlantirish faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan emas, balki zamonaviy logistika infratuzilmasini shakllantirish, xalqaro transport koridorlarini diversifikatsiya qilish hamda bojxona jarayonlarini raqamlashtirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan logistika islohotlari eksport geografiyasini kengaytirish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

4.1. Tashqi savdo dinamikasi

O‘zbekiston tashqi savdosi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakat tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd AQSh dollariga yetdi. Shundan 33,8 mlrd dollar eksport, 47,35 mlrd dollar esa import hissasiga to‘g‘ri keldi. Xizmatlar eksporti 9,76 mlrd dollarni tashkil etib, uning qariyb uchdan bir qismini transport xizmatlari tashkil etdi. 2026-yilning dastlabki besh oyida transport xizmatlarining xizmatlar eksportidagi ulushi 36,2 foizgacha oshgani logistika sohasining eksportdagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tashqi savdo geografiyasida ayrim davlatlarning ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2025-yilda tashqi savdo aylanmasida Xitoy (21,2 foiz), Rossiya (16,0 foiz) va Qozog‘iston (6,1 foiz) yetakchi savdo hamkorlari bo‘ldi. Eksport tarkibida ham Rossiya, Xitoy va Qozog‘iston asosiy ulushni egallamoqda. Mazkur holat mavjud bozorlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish bilan bir qatorda eksport geografiyasini yanada kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

4.2. Logistika infratuzilmasi va logistika markazlari

O‘zbekistonning dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emasligi transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Shu maqsadda 2025-yilda tasdiqlangan Transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish, yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va multimodal tashuvlarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda respublikada 16 ta yirik multimodal logistika markazi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2026-yilda ularning sonini 27 taga, umumiy yukni qayta ishlash quvvatini esa 27,2 mln tonnagacha yetkazish rejalashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Xonobod, Olot va Termiz hududlarini xalqaro logistika darvozalari sifatida rivojlantirish vazifasi belgilangan. Mazkur yondashuv logistika infratuzilmasini hududiy iqtisodiy ixtisoslashuv bilan uyg‘unlashtirish imkonini bermoqda.

4.3. Logistics Performance Index (LPI)

Jahon bankining **Logistics Performance Index (LPI)** xalqaro logistika samaradorligini baholovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur indeks bojxona tizimi samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashuvlarni tashkil etish imkoniyatlari, logistika xizmatlari sifati, yuklarni kuzatish hamda yetkazib berishning o‘z vaqtida amalga oshirilishi kabi oltita mezon asosida shakllantiriladi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan 2030-yilgacha LPI reytingida kamida 55-o‘rinni egallash strategik maqsad sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun bojxona jarayonlarini soddalashtirish, multimodal logistika markazlarini rivojlantirish, xalqaro transport koridorlarini kengaytirish va logistika xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda.

4.4. Bojxona islohotlari va savdoni yengillashtirish

So‘nggi yillarda bojxona tizimini modernizatsiya qilish tashqi savdo xarajatlarini kamaytirishning muhim

omiliga aylandi. Xususan, **“Export in Three Steps”** tizimining joriy etilishi natijasida eksportni rasmiylashtirish jarayoni 9 bosqichdan 3 bosqichga qisqartirildi. Natijada eksportni rasmiylashtirish vaqti bir kundan bir soatgacha qisqardi, eksport xarajatlari esa o‘rtacha 35 foizga kamaydi. Bundan tashqari, **Auto Clearance** tizimi, xavflarni boshqarish mexanizmlari hamda **E-Transit** platformasi joriy etilib, tranzit jarayonlarini raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur islohotlar Jahon Savdo Tashkilotining **Trade Facilitation Agreement (TFA)** tamoyillariga muvofiq amalga oshirilmoqda va O‘zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

4.5. Xalqaro transport koridorlari

O‘zbekistonning geografik joylashuvi mamlakatni Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi muhim tranzit hududlardan biriga aylantirish imkonini beradi. Shu sababli transport siyosati yagona yo‘nalishga emas, balki o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi transport koridorlari tizimiga asoslanmoqda.

Middle Corridor (Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagi) O‘zbekiston uchun Yevropa bozorlariga chiqishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu koridor Xitoy – Markaziy Osiyo – Kaspiy dengizi – Kavkaz – Yevropa yo‘nalishini qamrab olib, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi. Jahon banki prognozlariga ko‘ra, ushbu koridor orqali yuk tashish hajmi kelgusida bir necha barobarga oshishi mumkin.

TRACECA (Transport Corridor Europe–Caucasus–Asia) O‘zbekistonning Yevropa bilan transport aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim institutsional platforma hisoblanadi. Mazkur yo‘lak transport infratuzilmasini uyg‘unlashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda multimodal tashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, CAREC dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar ham mamlakatning mintaqaviy logistika salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

4.6. Trans-Afghan koridori

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashqi savdo strategiyasida Trans-Afghan transport koridori alohida ahamiyat kasb etmoqda. Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar temir yo‘li orqali Pokistonning Karachi va Gvadar portlariga chiqish imkoniyati mamlakatning Janubiy Osiyo bozorlariga integratsiyalashuvini kengaytirishi mumkin. Mazkur koridor amalga oshirilishi natijasida yuklarni yetkazib berish muddati sezilarli darajada qisqarishi hamda O‘zbekistonning tranzit salohiyati yanada oshishi kutilmoqda. Shu bois Termiz shahri janubiy logistika darvozasi sifatida rivojlantirilmoqda.

4.7. Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston (CKU) temir yo‘li

Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston (CKU) temir yo‘li loyihasi mamlakat tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilishda muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu loyiha O‘zbekistonni Xitoy bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lab, mavjud transport yo‘nalishlarini to‘ldiruvchi muqobil yo‘l yaratadi. Natijada yuk tashish masofasi va transport xarajatlarining qisqarishi, Farg‘ona vodiysining xalqaro logistika tizimlariga integratsiyasi esa kuchayishi kutilmoqda. Bundan tashqari, CKU temir yo‘lining Middle Corridor va Trans-Afghan koridorlari bilan uyg‘unlashuvi O‘zbekistonning tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

4.8. Zamonaviy logistika xizmatlari: 3PL–5PL

Jahon amaliyotida logistika xizmatlari bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. **3PL (Third-Party Logistics)** modeli tashish, omborxona, qadoqlash va zaxiralarni boshqarish xizmatlarini kompleks autsorsing qilishni nazarda tutadi. **4PL (Fourth-Party Logistics)** esa butun ta’minot zanjirini yagona operator tomonidan boshqarishni anglatadi. **5PL (Fifth-Party Logistics)** modeli sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari asosida bir nechta logistika tarmoqlarini integratsiyalashni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda transport-logistika siyosati endilikda nafaqat infratuzilmani rivojlantirishga, balki yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan zamonaviy logistika xizmatlarini kengaytirishga ham yo‘naltirilmoqda. Xususan, “E-logistika” platformasini joriy etish, logistika markazlarini raqamlashtirish va yirik milliy 3PL hamda 4PL operatorlarini shakllantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar mamlakatning xalqaro logistika tizimidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali 5PL modeliga bosqichma-bosqich o‘tish O‘zbekistonning mintaqaviy logistika xabi sifatidagi salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

5. Agroeksportni diversifikatsiya qilish tahlili

O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi muhim strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar natijasida meva-sabzavot, poliz mahsulotlari va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti izchil o‘sib bormoqda. Biroq eksport hajmlarining ortishi bilan bir qatorda, uning geografik diversifikatsiyasini ta’minlash ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mamlakat agroeksportida ayrim davlatlarning ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotgani tashqi iqtisodiy va geosiyosiy o‘zgarishlarga sezgirlikni oshirishi mumkin. Shu sababli eksport geografiyasini yuqori daromadli va barqaror talabga ega Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hisobiga kengaytirish O‘zbekiston eksport strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan

biri hisoblanadi.

5.1. O‘zbekiston qovun eksportining hozirgi holati

Poliz mahsulotlari orasida qovun O‘zbekistonning an’anaviy eksport mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Qulay agroiqlim sharoiti, mahsulotning yuqori ta’m sifati va eksport salohiyatining mavjudligi mamlakatning ushbu yo‘nalishdagi raqobat ustunliklarini shakllantiradi. 2019–2025-yillar davomida qovun eksporti hajmi o‘sib borgan bo‘lsa-da, eksport geografiyasida MDH davlatlarining ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat eksport geografiyasini yanada kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

2025-yilda qovun eksportining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasiga to‘g‘ri kelib, 45,4 foizni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda Qirg‘iziston (22,2 foiz), Qozog‘iston (8,4 foiz), Ukraina (6,3 foiz) va Latviya (5,7 foiz) joylashgan. Mazkur tarkib eksportning bir nechta mamlakatlarda jamlanganligini ko‘rsatadi hamda yangi eksport yo‘nalishlarini rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

5.2. Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish zarurati

Xalqaro amaliyotda eksportning tor geografik tarkibga ega bo‘lishi tashqi talabdagi o‘zgarishlar, geosiyosiy xatarlar, transport cheklovlari va savdo siyosatidagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgirlikni oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi bozori ushbu maqsadga erishishda istiqbolli yo‘nalish sanaladi. Birinchidan, Yevropa Ittifoqida xarid qobiliyati yuqori bo‘lgan iste’molchilar bozori mavjud. Ikkinchidan, O‘zbekistonning GSP+ preferensiyalaridan foydalanishi ko‘plab mahsulotlar uchun tarif imtiyozlaridan foydalanish imkonini beradi. Uchinchidan, Middle Corridor, TRACECA va Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li kabi transport yo‘laklarining rivojlanishi Yevropa bozorlariga chiqish uchun logistika imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli logistika infratuzilmasini rivojlantirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

5.3. Germaniya bozorining strategik ahamiyati

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida Germaniya qovun eksporti uchun eng istiqbolli bozorlardan biri hisoblanadi. Germaniya nafaqat Yevropaning eng yirik iste’mol bozorlaridan biri, balki muhim logistika markazi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu mamlakat orqali mahsulotlarni boshqa Yevropa davlatlariga qayta taqsimlash imkoniyati mavjud.

Biroq Germaniya bozoriga kirish yuqori sifat standartlariga rioya etish, fitosanitariya talablarini bajarish, pestitsid qoldiqlari bo‘yicha qat’iy nazoratni ta’minlash va sovutilgan logistika tizimidan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli eksportni ushbu bozorga yo‘naltirish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirishni, balki logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, GLOBALG.A.P. sertifikatlash tizimini keng joriy etish hamda xalqaro sifat standartlariga moslashishni ham talab etadi.

5.4. Eksport geografiyasining HHI indeksi asosidagi tahlili

Eksport geografiyasining konsentratsiyalashuv darajasini aniqlash maqsadida Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) hisoblandi. Hisob-kitob natijalari O‘zbekiston agroeksportida ayrim mamlakatlarning ulushi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra:

- jami agroeksport bo‘yicha HHI 0,16–0,23 oralig‘ida;
- poliz mahsulotlari eksportida HHI 0,22–0,32 oralig‘ida;
- qovun eksportida esa HHI 0,19–0,31 oralig‘ida shakllangani aniqlandi.

Mazkur natijalar qovun eksportining ayrim yillarda yuqori darajada konsentratsiyalashganligini va eksport geografiyasini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Rossiya bozorining ulushi yuqori ekanligi eksportning ayrim bozorlardagi o‘zgarishlarga sezgirligini oshirishi mumkin. Shu sababli mavjud savdo hamkorlari bilan aloqalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan, Germaniya bozorining ulushini bosqichma-bosqich oshirish eksport barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

5.5. Regressiya tahlili natijalari

Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida Germaniya bozoridagi ulush bilan umumiy qovun eksporti hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik oddiy chiziqli regressiya modeli yordamida baholandi.

Hisoblash natijalariga ko‘ra:

- regressiya koeffitsienti (β) = 2,2202;
- determinatsiya koeffitsienti (R^2) = 0,787;
- p-value = 0,0077.

Natijalar modelning statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatadi. Regressiya koeffitsientining musbat qiymati Germaniya bozoridagi eksport ulushining ortishi bilan umumiy qovun eksporti hajmining oshishi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Germaniya bozoridagi ulushning 1 foiz punktga oshishi umumiy qovun eksporti hajmining o‘rtacha 2,2 foizga oshishi bilan bog‘liq.

Shuningdek, Germaniya bozorining eksportdagi ulushi 5 foizdan 10 foizgacha oshgan holatda regressiya modeli bo‘yicha umumiy qovun eksporti hajmi taxminan 11 foizga ko‘payishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu natija eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatadi.

5.6. Tahlil natijalarining umumlashtirilishi

O‘tkazilgan HHI va regressiya tahlillari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qovun eksportini rivojlantirishning muhim imkoniyatlaridan biri ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir qatorda eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishdan iborat. Yevropa Ittifoqi, xususan, Germaniya bozoriga chiqish eksport hajmini oshirish bilan bir qatorda mahsulotning qo‘shilgan qiymatini ko‘paytirish imkonini ham yaratadi.

Bunda logistika infratuzilmasining rivojlanishi muhim omil hisoblanadi. Middle Corridor, TRACECA, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li va Trans-Afghan koridorlari orqali Yevropa bozorlariga yetkazib berish imkoniyatlarining kengayishi, multimodal logistika markazlarining rivojlanishi, bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi hamda sovutilgan logistika tizimining takomillashuvi eksportni geografik jihatdan diversifikatsiya qilish uchun zarur institutsional sharoitlarni yaratadi. Shu jihatdan, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va agroeksportni diversifikatsiya qilish bir-birini to‘ldiruvchi iqtisodiy siyosat yo‘nalishlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi va agroeksportni diversifikatsiya qilish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlillar logistika infratuzilmasining takomillashuvi eksport geografiyasini kengaytirish uchun zarur institutsional sharoit yaratishini, eksport geografiyasining diversifikatsiyalashuvi esa eksport hajmi va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda transport-logistika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, xalqaro logistika markazlarini tashkil etish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish hamda Middle Corridor, TRACECA, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li va Trans-Afghan koridorlari bo‘yicha olib borilayotgan ishlar eksport uchun yangi logistika imkoniyatlarini shakllantirmoqda. Ushbu infratuzilmaning rivojlanishi tashish xarajatlarini kamaytirish bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqi kabi yuqori talab va yuqori daromadga ega bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Empirik tahlillar eksport geografiyasi hali ham yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko‘rsatdi. Hisoblangan HHI ko‘rsatkichlariga ko‘ra, qovun eksportida indeks ayrim yillarda 0,31 gacha yetgan bo‘lib, bu eksportning asosan bir nechta mamlakatlarga jamlanganligini bildiradi. Ayniqsa, Rossiya bozorining yuqori ulushi eksportning ayrim bozorlardagi o‘zgarishlarga sezgirligini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Demak, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish nafaqat yangi bozorlarni egallash, balki tashqi iqtisodiy xatarlarni kamaytirish vositasi hamdir.

Regressiya tahlili esa eksport diversifikatsiyasi bilan umumiy qovun eksporti hajmi o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni empirik jihatdan ko‘rsatdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Germaniya bozoridagi eksport ulushining har 1 foiz punktga oshishi umumiy qovun eksporti hajmining o‘rtacha 2,2 foizga oshishi bilan bog‘liq. (**$\beta = 2{,}2202$; $R^2 = 0{,}787$; $p < 0{,}01$**). Modelning yuqori determinatsiya koeffitsienti eksport geografiyasidagi o‘zgarishlar umumiy eksport hajmidagi o‘zgarishlarning sezilarli qismini izohlashini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar logistika infratuzilmasi va eksport diversifikatsiyasi o‘rtasidagi **o‘zaro bog‘liqlikni** quyidagi konseptual model orqali izohlash imkonini beradi:

Transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi → transport xarajatlari va yetkazib berish muddatlarining qisqarishi → Yevropa bozorlariga kirish imkoniyatining kengayishi → eksport geografiyasining diversifikatsiyalashuvi → agroeksport hajmi va eksport daromadlarining oshishi.

Ushbu model shuni ko‘rsatadiki, logistika infratuzilmasi eksport hajmiga bevosita emas, balki eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Boshqacha aytganda, logistika infratuzilmasi iqtisodiy o‘sishning yagona mustaqil omili emas, balki eksport bozorlarini kengaytiruvchi va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaxshilovchi institutsional mexanizmlardan biri vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy yondashuvlar bilan hamohangdir. OECD va Jahon banki logistika samaradorligi global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvning muhim omili ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, Cadot, Imbs va Wacziarg eksport diversifikatsiyasi bilan iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan asoslagan. Olingan natijalar ushbu nazariy yondashuvlarning O‘zbekiston sharoitida ham dolzarbligini ko‘rsatib, logistika infratuzilmasining rivojlanishi eksport geografiyasini kengaytirish va agroeksport hajmini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, tadqiqot Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqish faqat logistika masalasi emasligini ham ko‘rsatdi. Yuqori sifat standartlari, fitosanitariya talablari, sovutilgan logistika, mahsulotlarni sertifikatlash va marketing tizimlari transport infratuzilmasi bilan birgalikda rivojlantirilgandagina eksportning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Demak, logistika siyosatini qishloq xo‘jaligi, tashqi savdo va sanoat siyosati bilan uyg‘un holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi shundan iboratki, **transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi, eksport geografiyasining diversifikatsiyalashuvi esa agroeksport hajmining oshishi bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etadi**. HHI indeksi eksport konsentratsiyasining ayrim yillarda yuqori darajada bo‘lganini, regressiya modeli esa diversifikatsiya bilan eksport hajmi o‘rtasidagi ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikni empirik jihatdan ko‘rsatdi. Shu bois O‘zbekistonda logistika infratuzilmasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarni nafaqat transport loyihalari, balki uzoq muddatli eksport siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va agroeksportni diversifikatsiya qilish o‘rtasida muhim iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ilmiy va empirik jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot davomida logistika infratuzilmasining holati, tashqi savdo dinamikasi, xalqaro transport koridorlarining rivojlanishi hamda qovun eksportining geografik tarkibi kompleks tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda logistika markazlari tarmog‘ining kengayishi, bojxona tizimining raqamlashtirilishi, multimodal tashuvlarning rivojlanishi va yangi xalqaro transport koridorlarining shakllanishi O‘zbekiston eksport salohiyatini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratmoqda. Shu bilan birga, eksport geografiyasida ayrim davlatlarning ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotgani eksportning tashqi bozorlardagi o‘zgarishlarga sezgirligini oshirishi mumkin.

HHI indeksi natijalari qovun eksportining ayrim yillarda yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko‘rsatdi. Bu esa eksport geografiyasini kengaytirish va yangi bozorlarga chiqish zaruratini asoslaydi. Regressiya tahlili Germaniya bozoridagi eksport ulushining ortishi bilan umumiy qovun eksporti hajmi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Natijalar logistika infratuzilmasining rivojlanishi eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish uchun qulay sharoit yaratishi, diversifikatsiya esa agroeksport hajmining oshishi bilan ijobiy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Demak, O‘zbekiston uchun logistika infratuzilmasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarni nafaqat transport loyihalari sifatida, balki eksportni rivojlantirish, yangi bozorlarga chiqish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashning muhim strategik vositasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Sovuq logistika klasterlarini rivojlantirish. Qovun va boshqa tez buziluvchi mahsulotlar eksporti uchun ishlab chiqarish hududlarida zamonaviy sovutish omborlari, saralash va qadoqlash markazlarini o‘z ichiga olgan sovuq logistika klasterlarini tashkil etish zarur.

Germaniyada distribyutorlik tarmoqlarini shakllantirish. O‘zbekiston eksportchilari uchun Germaniyaning Gamburg, Berlin va Frankfurt kabi yirik logistika markazlarida distribyutorlik va konsolidatsiya markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Multimodal logistika tizimini rivojlantirish. Temir yo‘l, avtomobil, havo va dengiz transporti o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali eksport tashuvlari samaradorligini oshirish lozim.

Sun’iy intellekt asosidagi eksport prognozlash tizimini yaratish. Jahon bozorlari, narxlar, logistika xarajatlari va talab dinamikasini real vaqt rejimida tahlil qiluvchi AI-platformani ishlab chiqish eksport qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Eksport sug‘urtasi va moliyaviy kafolatlarni kengaytirish. Uzoq masofali eksport operatsiyalarida tijorat tavakkalchiliklarini kamaytirish maqsadida eksport kreditlari va sug‘urta mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Logistika xarajatlarini kamaytirish. Tranzit yig‘imlarini optimallashtirish, konteyner tashuvlarini rivojlantirish hamda elektron hujjat aylanishini keng joriy etish orqali eksport xarajatlarini qisqartirish mumkin.

Agrohublar tarmog‘ini kengaytirish. Eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va logistika xizmatlarini yagona hududda birlashtiruvchi agrohublarni tashkil etish eksport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron fitosanitariya tizimini rivojlantirish. ePhyto xalqaro platformasi bilan integratsiyani kengaytirish orqali fitosanitariya sertifikatlarini elektron almashish jarayonlarini tezlashtirish va ma’muriy xarajatlarni kamaytirish mumkin.

LPI ko‘rsatkichlarini yaxshilash. Bojxona samaradorligi, logistika xizmatlari sifati, yuklarni kuzatish va yetkazib berish ishonchliligi bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Premium organik qovun segmentiga kirish. Organik sertifikatlash tizimini rivojlantirish orqali Yevropa Ittifoqining yuqori daromadli bozor segmentlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

GLOBALG.A.P. va Yevropa standartlarini ommalashtirish. Eksport qiluvchi xo‘jaliklarni xalqaro

standartlar asosida sertifikatlash bo‘yicha davlat ko‘magini kengaytirish zarur.

Eksportni raqamli monitoring qilish tizimini yaratish. Tashqi bozorlar, logistika yo‘nalishlari, narxlar va eksport shartnomalari bo‘yicha yagona milliy axborot platformasini joriy etish tavsiya etiladi.

Transport koridorlarini diversifikatsiya qilish. Middle Corridor, TRACECA, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li va Trans-Afghan yo‘nalishlaridan o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda foydalanish orqali logistika xatarlarini kamaytirish mumkin.

Hududlarda eksport-logistika markazlarini tashkil etish. Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Jizzax va Surxondaryo kabi eksport salohiyati yuqori hududlarda zamonaviy logistika markazlarini rivojlantirish lozim.

“Aqlli eksport” (Smart Export) platformasini yaratish. Sun’iy intellekt yordamida eksport bozorlarini tanlash, logistika marshrutlarini optimallashtirish, bojxona talablari va Yevropa Ittifoqi standartlari bo‘yicha tavsiyalar beruvchi milliy raqamli platformani ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekiston transport-logistika tizimining samaradorligini oshirish, agroeksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda Yevropa Ittifoqi bozorlarida milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. World Bank. *Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in an Uncertain Global Economy — The Logistics Performance Index and Its Indicators*. — Washington, DC : World Bank, 2023. — URL: https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/b6a73b40-d095-47c5-86e7-162f0e18796c (murojaat sanasi: 13.08.2026).
2. World Bank. *World Development Indicators* [Elektron resurs]. — Washington, DC : World Bank. — URL: https://data.worldbank.org/ (murojaat sanasi: 13.08.2026).
3. World Bank. *World Integrated Trade Solution (WITS)* [Elektron resurs]. — URL: https://wits.worldbank.org/ (murojaat sanasi: 13.08.2026).
4. World Trade Organization. *Trade Facilitation Agreement* [Elektron resurs]. — Geneva : WTO. — URL: https://www.wto.org/english/tratop_e/tradfa_e/tradfa_e.htm (murojaat sanasi: 13.08.2026).
5. World Trade Organization. *World Trade Statistical Review* [Elektron resurs]. — Geneva : WTO. — URL: https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/wts_e.htm (murojaat sanasi: 13.08.2026).
6. OECD. *Global Value Chains: Efficiency and Risks in the Context of COVID-19*. — Paris : OECD Publishing, 2021. — 17 p. — DOI: 10.1787/67c75fdc-en. — URL: https://doi.org/10.1787/67c75fdc-en
7. • OECD. *OECD Trade Facilitation Indicators: Monitoring Policies up to 2025*. — Paris : OECD Publishing, 2025. — 29 p. — DOI: 10.1787/fd6f27dc-en. — URL: https://doi.org/10.1787/fd6f27dc-en
8. UNCTAD. *Handbook of Statistics 2025*. — Geneva : United Nations Conference on Trade and Development, 2025. — URL: https://unctad.org/publication/handbook-statistics-2025 (murojaat sanasi: 13.08.2026).
9. UNCTAD. *Trade and Development Report 2025: On the Brink*. — Geneva : United Nations Conference on Trade and Development, 2025. — URL: https://unctad.org/publication/trade-and-development-report-2025 (murojaat sanasi: 13.08.2026).
10. Asian Development Bank. *CAREC Transport Strategy 2030*. — Manila : Asian Development Bank, 2020. — 48 p. — DOI: 10.22617/SPR200024-2. — URL: https://www.adb.org/documents/carec-transport-strategy-2030
11. Cadot O., Carrère C., Strauss-Kahn V. Export Diversification: What’s Behind the Hump? // *The Review of Economics and Statistics*. — 2011. — Vol. 93, No. 2. — P. 590–605. — DOI: 10.1162/REST_a_00078. — URL: https://doi.org/10.1162/REST_a_00078
12. Imbs J., Wacziarg R. Stages of Diversification // *American Economic Review*. — 2003. — Vol. 93, No. 1. — P. 63–86. — DOI: 10.1257/000282803321455160. — URL: https://doi.org/10.1257/000282803321455160
13. Krugman P. R., Obstfeld M., Melitz M. J. *International Economics: Theory and Policy*. — 12th ed. — Harlow : Pearson, 2022.
14. Rodrigue J.-P. *The Geography of Transport Systems*. — 6th ed. — New York : Routledge, 2024. — 402 p.
15. Christopher M. *Logistics and Supply Chain Management*. — 6th ed. — Harlow : Pearson, 2022.
16. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York : Free Press, 1990.
17. Regulation (EC) No 396/2005 of the European Parliament and of the Council of 23 February 2005 on maximum residue levels of pesticides in or on food and feed of plant and animal origin and amending Council Directive 91/414/EEC // *Official Journal of the European Union*. — 2005. — L 70. — P. 1–16. — URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2005/396/oj/eng (murojaat sanasi: 13.08.2026).
18. Regulation (EU) 2016/2031 of the European Parliament and of the Council of 26 October 2016 on protective measures against pests of plants // *Official Journal of the European Union*. — 2016. — URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/2031/oj/eng (murojaat sanasi: 13.08.2026).
19. Regulation (EU) 2017/625 of the European Parliament and of the Council of 15 March 2017 on official controls and other official activities performed to ensure the application of food and feed law, rules on plant health and plant protection products // *Official Journal of the European Union*. — 2017. — URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2017/625/oj/eng (murojaat sanasi: 13.08.2026).
20. Commission Delegated Regulation (EU) 2021/576 of 30 November 2020 amending Annex III to Regulation (EU) No 978/2012 to include the Republic of Uzbekistan among the countries benefiting from tariff preferences under GSP+ // *Official Journal of the European Union*. — 2021. — URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg_del/2021/576/oj/

eng (murojaat sanasi: 13.08.2026).
21. United Nations Economic Commission for Europe. *UNECE Standard FFV-23 concerning the Marketing and Commercial Quality Control of Melons*. — Geneva : UNECE, 2023. — URL: https://unece.org/sites/default/files/2024-03/FFV-23_Melons_2023_e.pdf (murojaat sanasi: 13.08.2026).
22. Food and Agriculture Organization of the United Nations. *FAOSTAT: Food and Agriculture Data* [Elektron resurs]. — Rome : FAO. — URL: https://www.fao.org/faostat/en/ (murojaat sanasi: 13.08.2026).
23. UNCTAD. *UNCTAD Data Hub (UNCTADstat)* [Elektron resurs]. — Geneva : United Nations Conference on Trade and Development. — URL: https://unctadstat.unctad.org/ (murojaat sanasi: 13.08.2026).
24. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdo statistikasi* [Elektron resurs]. — Toshkent. — URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2 (murojaat sanasi: 13.08.2026).
25. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. *Eksport va tashqi savdoga oid rasmiy hamda tahliliy ma’lumotlar* [Elektron resurs]. — Toshkent. — URL: https://gov.uz/oz/miit (murojaat sanasi: 13.08.2026).
26. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi. *Tashqi savdo bojxona statistikasi* [Elektron resurs]. — Toshkent. — URL: https://customs.uz/uz (murojaat sanasi: 13.08.2026).
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ–28-son **“O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7342148 (murojaat sanasi: 13.08.2026).
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-son **“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi Farmoni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-4567334 (murojaat sanasi: 13.08.2026).
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PQ–146-son **“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi qarori. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-6863857 (murojaat sanasi: 13.08.2026).
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son **“O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”**gi Farmoni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/docs/-6811936 (murojaat sanasi: 13.08.2026).

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100